

V. XIZMATLAR



Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko‘rsatish sohasining rolini oshirishga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Xizmatlarning xilma-xilligi aholi katta qismining hayot sifatini va farovonligini yaxshilash imkonini beradi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik ulushi –74,2%



Xizmatlar sohasining asosiy ko‘rsatkichlari
(2024- yil yanvar-dekabr)

Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi – 13 182,0 ming so‘m



Xizmatlar hajmi 20 069,5 mlrd so‘m



Xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar ulushi –64,5 %



Xizmatlar sohasi hajmining o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 113,8 foizni tashkil etdi.






Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan
(ko'rsatilgan) bozor xizmatlarining hajmi


	Miqdori, (mlrd so'm)	O'sish sur'ati, foiz	Jamiga nisbatan foizda
Xizmatlar – jami	20 069,5	113,8	100,0
<i>shu jumladan asosiy turlari bo'yicha:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	642,9	125,0	3,2
moliyaviy xizmatlar	3 029,4	110,0	15,1
transport xizmatlari	2 101,5	113,2	10,5
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	2 014,7	110,1	10,0
yashash va ovqatlanish xizmatlari	5 755,5	110,3	28,7
savdo xizmatlari	5 077,2	125,5	25,3
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	307,8	116,0	1,5
ta'lim sohasidagi xizmatlar	527,8	97,1	2,6
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	357,7	104,8	1,8
ijara xizmatlari	197,9	107,1	1,0
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	394,3	110,2	2,0
shaxsiy xizmatlar	396,7	107,1	2,0
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	186,2	106,2	0,9
boshqa xizmatlar	1 094,6	105,0	5,4

Xizmatlar tarkibida yuqori ulushlarni yashash va ovqatlanish xizmatlari (28,7 %), savdo xizmatlari (25,3%), moliyaviy xizmatlar (15,1 %) hamda transport xizmatlari (10,5 %) tashkil etdi.

Xizmatlar umumiy hajmida kam ulushlarni shaxsiy xizmatlar va me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (0,9 %) hamda ijara xizmatlari (1,0 %) egalladi.


 Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibining o'sish sur'atlari, % da
(2024- yil yanvar-dekabr oylari uchun)

■ 2022-yil yanvar-dekabr ■ 2023-yil yanvar-dekabr ■ 2024-yil yanvar-dekabr






Xizmatlar tarkibida mulkchilik shakllari ulushlarining o'zgarish dinamikasi, % da



Bozor xizmatlarining umumiy hajmida savdo xizmatlari eng yuqori ulushni (25,3 %) tashkil etdi. Savdo xizmatlari oddiy taqsimlash mexanizmidan iste'molchiga yo'naltirilgan bozor talablarini shakllantirish jarayonlarida faol ishtirokchiga aylandi. Hozirgi vaqtda, savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmining sezilarli qismi hisoblanadi.

Savdo xizmatlari tarkibida chakana savdo (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) xizmatlari yuqori ulushni tashkil etadi (52,4 foiz), avtomobil ulgurji va chakana savdo xizmatlari 41,2 foiz va ulgurji savdo xizmatlari 6,4 foizni tashkil etdi.





Savdo xizmatlari hajmi va o'rish darajasining hududlar kesimida taqsimlanishi
(2024- yil yanvar-dekabr)


	<i>Mlrd so'm</i>	<i>2023- yil yanvar-dekabriga nisbatan foiz</i>	<i>Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, foizda</i>
Jizzax viloyati*	5 077,2	125,5	100,0
<i>shahar:</i>			
Jizzax	2 038,4	143,1	40,1
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	93,6	112,0	1,8
Baxmal	349,0	114,3	6,9
G'allaorol	573,8	140,0	11,3
Sharof Rashidov	412,3	116,4	8,1
Do'stlik	144,5	107,0	2,8
Zomin	334,7	112,3	6,6
Zarbdor	147,1	106,6	2,9
Mirzacho'l	120,2	130,1	2,4
Zafarobod	77,9	106,0	1,5
Paxtakor	151,5	89,6	3,0
Forish	182,6	110,9	3,6
Yangiobod	45,1	107,8	0,9

*) *Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda.*

Savdo xizmatlari hududlar bo'yicha tahlil qilinganida, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o'rish sur'atlari Jizzax shahrida (143,1 %), G'allaorol (140,0 %), Mirzacho'l (130,1 %) va Sharof Rashidov (116,4 %) tumanlarida qayd etildi.



Savdo xizmatlarining umumiy hajmida hududlar ulushi, % da
(2024- yil yanvar-dekabr)




Savdo xizmatlari bo'yicha yuqori ulushga ega bo'lgan hududlar Jizzax shahri (40,1%), G'allaorol (11,3 %), Sharof Rashidov (8,1 %), Baxmal (6,9 %) va Zomin (6,6 %) tumanlari hisoblanadi.

Yuqori ulushga ega bo'lmagan hududlar esa, Yangiobod (0,9 %), Zafarobod (1,5%), Arnasoy (1,8 %) va Mirzacho'l (2,4 % dan) tumanlaridir.




Transport xizmatlarining tarkibi, % da
(2024- yil yanvar-dekabr)



Xizmatlar tarkibida savdo va moliya xizmatlaridan keyin transport xizmatlari ulushi (10,5 %) yuqoriligini ko'rish mumkin.

Shuningdek, qayd etish joizki yuklar va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlar hajmi oshishining asosiy omillari – bu yangi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish, sanoat zonalarini tashkil etish va kengaytirish, savdo tarmoqlarini kengaytirish, turizm faoliyatini rivojlantirish hisoblanadi.

Transport xizmatlari tarkibida avtomobil transportining ulushi 10,0 foiz bilan asosiy ustunlikka ega.

	Transport xizmatlari hajmi va o'sish darajasining hududlar kesimida taqsimlanishi (2024- yil yanvar-dekabr)
---	---


	<i>Mlrd so'mda</i>	<i>2023- yil yanvar-dekabriga nisbatan foizda</i>	<i>jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, foiz</i>
Jizzax viloyati*	2 101,5	113,2	100,0
<i>shahar:</i>			
Jizzax sh.	377,3	116,6	18,0
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	13,7	111,8	0,7
Baxmal	153,9	109,9	7,3
G'allaorol	145,8	111,1	6,9
Sharof Rashidov	614,3	112,4	29,2
Do'stlik	71,0	163,1	3,4
Zomin	161,6	110,5	7,7
Zarbdor	62,6	109,2	3,0
Mirzacho'l	32,7	160,9	1,6
Zafarobod	25,6	105,3	1,2
Paxtakor	51,8	109,5	2,5
Forish	170,0	113,4	8,1
Yangiobod	10,5	107,8	0,5

*) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda.

Tumanlar o'rtasida transport xizmatlari bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Do'stlik (163,1 %), Mirzacho'l (160,9 %) tumanlari va Jizzax shahri (116,6 %) da qayd etildi.



Transport xizmatlarining umumiy hajmida hududlarning ulushi, % da (2024- yil yanvar-dekabr)



Transport xizmatlari bo'yicha yuqori ulushga ega hududlar sifatida Sharof Rashidov (29,2 %), Jizzax shahri (18,0 %), Forish (8,1 %), Zomin (7,7 %) va Baxmal (7,3 %) tumanlari qayd etildi.


Axborot texnologiyalarining rivojlanishi insonning zamonaviy turmush tarziga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Yildan-yilga odamlar internet va mobil telefonlardan foydalangan holda operatsiyalarni amalga oshirish uchun ko'proq imkoniyatlarga ega bo'lmoqda. Zamonaviy biznesni rivojlantirishda axborot va xizmatlardan real vaqtda masofaviy erkin foydalanish huquqi muhim o'rin tutadi.

Bugungi kunda Jizzax viloyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) davlat boshqaruvi tizimida, iqtisodiyotning tarmoqlarida, ijtimoiy soha va odamlarning kundalik hayotida joriy etishni izchil amalga oshirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida Jizzax viloyati bo'yicha aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 642,9 mlrd so'mga teng bo'ldi. 2023- yilning mos davriga nisbatan aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sishi 125,0 foizni tashkil etdi.




Jizzax viloyatida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'rish sur'ati, % da
(2024- yil yanvar-dekabr)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulush (75,4 %) telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, internet, yo'ldosh aloqa xizmatlari va h.k.) hissasiga to'g'ri keldi.



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibi, % da
(2024- yil yanvar-dekabr)




Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va moliya-kredit muassasalari xizmatlari tez rivojlanayotgan xizmat turlari hisoblanadi. Yangi texnologiyalarga va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayanib, bu faoliyat turlari hozirgi vaqtda rivojlanishning yangi bosqichi sifatida paydo bo‘ldi va bugungi kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashtirishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, AKT sohasida innovatsiyalarni joriy etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida yangi turdagi xizmatlarning paydo bo‘lishi aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmini oshirishga ta‘sir ko‘rsatadi.

Pul-kredit tizimini isloh qilish dasturida bank tizimini barqarorligini ta‘minlash, xalqaro standartlarga muvofiq bank faoliyatini yanada takomillashtirish, qo‘shimcha investitsiyalarni jalb qilish, bank va sug‘urta tashkilotlariga ko‘rsatiladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yangi xizmat turlarini joriy etish, moliyaviy xizmatlar hajmini yanada kengaytirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.


Natijada, 2024- yil yanvar-dekabr oylarida ko‘rsatilgan moliyaviy xizmatlar hajmi 3 029,4 mlrd so‘mga teng bo‘ldi va o‘shish sur‘ati 110,0 foizni tashkil etdi.

Jizzax viloyatida moliyaviy xizmatlarning o‘shish sur‘ati dinamikasi, % da
(2024- yil yanvar-dekabr)





Moliyaviy xizmatlarning tarkibi, % da
(2024- yil yanvar-dekabr)



Valyuta siyosatini erkinlashtirish, shuningdek, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish (kredit berish va depozit hisob raqamlarni ochish bo'yicha elektron xizmatlar ko'rsatish) borasida amalga oshirilayotgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmining oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar ulushi (94,0 %) ustunlik qilmoqda. Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta xizmatlarining ulushi 4,7 foizni, yordamchi moliyaviy faoliyat 1,3 foizni tashkil etdi.



Bozor xizmatlari hajmi va o'sish sur'atining hududlar kesimidagi holati

	<i>Jami</i>			<i>Aholi jon boshiga</i>	
	<i>mlrd so'm</i>	<i>2023- yil yanvar-dekabriga nisbatan foiz</i>	<i>Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, foizda</i>	<i>ming so'm</i>	<i>2023- yil yanvar-dekabriga nisbatan foizda</i>
Jizzax viloyati*	20 069,5	113,8	100,0	13 182,0	111,4
<i>shahar:</i>					
Jizzax	6 434,9	117,0	32,1	32 515,9	114,5
<i>tumanlar:</i>					
Arnasoy	220,5	110,3	1,1	4 489,7	108,7
Baxmal	896,3	112,7	4,4	5 199,0	110,2
G'allaorol	1 079,1	124,5	5,4	5 718,8	122,0
Sharof Rashidov	1 570,4	114,3	7,8	6 383,6	111,5
Do'stlik	352,9	110,6	1,8	5 005,9	108,9
Zomin	966,1	115,8	4,8	5 316,8	113,0
Zarbdor	397,9	106,0	2,0	4 166,0	103,9
Mirzacho'l	301,8	110,4	1,5	5 407,9	108,7
Zafarobod	198,9	105,7	1,0	3 677,4	103,9
Paxtakor	468,3	127,0	2,3	5 732,5	124,5
Forish	534,5	111,3	2,7	5 394,0	109,7
Yangiobod	86,3	108,1	0,4	2 877,1	106,6

*) *Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda.*

Xizmatlar sohasining rivojlanishida yuqori ulushlar Jizzax shahri (32,1 %), Sharof Rashidov (7,8 %) va G'allaorol (5,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Jizzax viloyati bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida hududlarning ulushi, % da
(2024- yil yanvar-dekabr)




Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng kichik ulushlarni Yangiobod (0,4 %), Zafarobod (1,0 %) va Arnasoy (1,1 %) tumanlari qayd etdi.


Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida (32 515,9 ming so'm) bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 114,5 foizni tashkil etdi.



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hududlar bo'yicha hajmi va o'sish sur'ati, % da
(2024- yil yanvar-dekabr)



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng quyi ko'rsatkichi Yangiobod (2 877,1 ming so'm), Zafarobod (3 677,4 ming so'm) va Zarbdor (4 166,0 ming so'm) tumanlarida kuzatildi.




2023-yilning mos davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 110,3 foizni tashkil etib hajmi 1 204,8 mlrd so'mga ko'paydi va 5 755,5 mlrd so'mga yetdi.

Ushbu turdagi xizmatlar o'sish sur'atlarining pasayishiga dam olish uylari, bolalar lagerlari, kottedjlar va boshqa dam olish maskanlari xizmatlariga bo'lgan aholining talabi kamayganligi sezilarli ta'sir etganligini qayd etish lozim.




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da
(2024- yil yanvar-dekabr)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmining asosiy qismini oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi (95,3 %) tashkil etadi.



Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'atlari
(2024- yil yanvar-dekabr)




Qayd etish joizki, Zomin tumanida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 190,3 foizni tashkil qildi.

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar jami xizmatlar hajmining 2,6 foizini tashkil etib 527,8 mlrd so'mni yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,9 foizga pasaygan. Hududlar bo'yicha tahlil qilinganida eng yuqori o'sish sur'ati Baxmal tumanida (147,0 foiz) kuzatildi.



2024- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida ta'lim sohasida ko'rsatilgan xizmatlarning o'sish sur'atlari, foizda





Xizmatlar ko'rsatishning mazkur sohasida yuqori o'sish sur'atlari Sharof Rashidov (125,1 %), G'allaorol (123,7 %) va Mirzacho'l (123,3 %) tumanlarida kuzatildi.

2024-yil yanvar-dekabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi 357,7 mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,8 foizga o'sdi va jami xizmatlardagi ulushi 1,8 foizni tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha tahlil qilinganida, eng yuqori o'sish sur'ati Zomin (111,4 %), Baxmal (110,4 %) va Forish (107,4 %) tumanlarida kuzatildi.



2024- yil yanvar-dekabr oylarida sog'liqni saqlash sohasida ko'rsatilgan xizmatlarning hududlar bo'yicha o'sish sur'ati, % da



2024-yilning yanvar-dekabr oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi 357,7 mlrd so'mni va xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi 1,8 foizni tashkil etdi.

2023-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,8 foizni tashkil etdi.



Taqqoslash uchun:

2023- yil yanvar-dekabr oylarida ushbu xizmatlar hajmi 294,2 mlrd so'mni yoki umumiy xizmatlar hajmining 1,9 foizini tashkil etgan.

Sog'liqni saqlash sohasida ko'rsatilgan xizmatlarning hududlar bo'yicha yuqori o'sish sur'atlari Zomin (111,4 %), Baxmal (110,4 %) va Forish (107,4 %) tumanlarida qayd etildi.